QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)

PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i10.126

TALABALARDA PORTFOLIO TAYYORLASH REFLEKSINI SHAKLLANTIRISHDA OLIY TA’LIMNI INDIVIDUALLASHTIRISH TEXNOLOGIYASINING SAMARADORLIGI

Arzikulova Surayyo Fayzullayevna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
katta o‘qituvchisi,p.f.f.d.,PhD
arziqulova72@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada respublikamiz oliy ta’lim tizimiga kredit-modul tizimini joriy etish va ushbu jarayonda talabalar ta’limini individuallashtirish borasida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar natijalari,oliy ta’limdagi globallashuv jarayoni hamda xalqaro ta’lim standartlariga integratsiyalashuv imkonini berishi nuqtayi nazaridan dolzarb ahamiyat kasb etishi o’rganilgan. Shu bilan birga kredit-modul tizimida talabalarni mustaqil ishlari va yig’ma, shaxsiy portfolio yaratish ko‘nikmasini rivojlantirish va ushbu metoddan shaxsan muntazam foydalanishga talabalarni undash haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: portfolio, portfolio tayyorlash refleksi, oliy ta’lim, individuallashtirish texnologiyasi, ta’limni individuallashtirish, talabalarning refleksiv faoliyati, kasbiy rivojlanish, individual ta’lim trayektoriyasi, mustaqil ta’lim, refleksiv kompetensiya, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, ta’lim samaradorligi, o‘z-o‘zini baholash, pedagogik texnologiyalar, talabalarning individual rivojlanishi.

Аннотация. В данной статье рассматривается важность внедрения кредитно-модульной системы в систему высшего образования нашей республики и результаты научных исследований по индивидуализации обучения студентов в этом процессе, процессу глобализации в высшем образовании и интеграции в международные образовательные стандарты. Одновременно рассматривается, что кредитно-модульная система способствует развитию у студентов самостоятельной работы и навыков создания коллективного, личного портфолио, а также поощряет регулярное использование студентами этого метода в личной жизни.

Ключевые слова: портфолио, рефлексия при подготовке портфолио, высшее образование, технология индивидуализации, индивидуализация образования, рефлексивная деятельность студентов, профессиональное развитие, индивидуальная образовательная траектория, самостоятельное обучение, рефлексивная компетентность, личностно-ориентированное образование, эффективность обучения, самооценка, педагогические технологии, индивидуальное развитие студентов.

Abstract. This article examines the importance of implementing a credit-modular system within the higher education system of our republic. It discusses research findings on the individualization of student learning within this framework, as well as the broader processes of globalization in higher education and integration into international educational standards. Furthermore, the article explores how the credit-modular system fosters the development of independent study skills and the ability to create both collective and personal portfolios, while also encouraging students to apply these practices in their personal lives.

Keywords: portfolio, portfolio development reflex, higher education, individualization technology, individualization of education, students’ reflective activity, professional development, individual learning trajectory, independent learning, reflective competence, learner-centered education, educational effectiveness, self-assessment, pedagogical technologies, students’ individual development.

XXI asrda oliy ta'lim sohasida yuz berayotgan tub o'zgarishlar, ayniqsa, Yevropa oliy ta'lim makonining shakllanishi va Boloniya jarayonining kengayib borishi ta'lim tizimlarini yangilash zaruratini kun tartibiga chiqarmoqda. O'zbekistonda ham bu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlar zamirida ta'lim sifatini oshirish, talabalarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va ularning o'qishdagi faolligini ta'minlash masalalari yotadi.

Kredit-modul tizimi – bu o'qitishning individual imkoniyatlarga mos, o'zlashtirish sur'atini va o'qituvchi bilan interaktiv muloqotni hisobga olgan holda tashkil etilgan zamonaviy tizimdir. Ushbu tizimda talabalar o'z shaxsiy ta'lim trayektoriyalarini belgilash imkoniyatiga ega bo'lishadi, bu esa o'z-o'zini o'qitish, refleksiya va tanqidiy fikrlash kabi kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Oliy ta’limda o‘quv jarayonini tashkil etishda kredit-modul tizimini joriy etish pedagogik salohiyatni oshirish hamda talabalarda o‘z-o‘zini tarbiyalash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu tizim bilimlarni ijodiy o‘zlashtirishni ta’minlaydi, o‘quv jarayonini tartibga soladi va bilimlar hajmini hisobga olgan holda, mutaxassislik va tanlov fanlari asosida ta’limni individuallashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, har bir talabaning hayotiy pozitsiyasi, ehtiyojlari, imkoniyatlari va qobiliyatlari inobatga olinadi.

Dunyoda bugungi kunda “Bolonya deklaratsiyasi”ga a’zo mamlakatlar soni ortib bormoqda. Bolonya jarayoni – Yevropa mamlakatlari orasida oliy ta’limni uyg‘unlashtirish jarayonidir. U oliy ta’lim darajalarining tushunarli va yagona tizimini yaratishni, ta’limda kredit-modul tizimiga o‘tishni, ta’lim sifatini oshirish maqsadida erkin akademik mobillikni ta’minlashni hamda Yevropa davlatlari bilan ta’lim hamkorligini o‘z ichiga oladi. Qisqacha aytganda, bu Yevropa mamlakatlari oliy ta’lim tizimlarini uyg‘unlashtirish, har bir kishi uchun teng ta’lim imkoniyatlarini yaratish, intellektual, madaniy, ijtimoiy, ilmiy va texnologik salohiyatni rivojlantirish hamda ta’lim sifatini takomillashtirish jarayonidir.

Mamlakatimizda kelajak avlodning bilimli va har tomonlama yetuk bo‘lib yetishishini ta’minlash maqsadida mamlakat ta’lim tizimida ko‘plab islohotlar va o‘zgarishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini

tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni mamlakatimizning oliy ta’lim tizimida yangi davrning boshlanishiga va tizimga bir qator yangiliklarning kiritilishiga asos bo‘ldi. Jumladan, mazkur farmonga muvofiq “oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish, xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish”[54] belgilab qo‘yilgan. Talabalar mustaqil ta’limini tashkil etishda foydalaniladigan navbatdagi qulay ta’lim metodi bu **“talabalar portfoliosi”**dir. Talabalar portfoliosini qo‘llashdan asosiy maqsad talabalarni o‘z faoliyatlarini tahlil qilishga, refleksiya ko‘nikmasini shakllantirishga, o‘z faoliyatini adekvat baholashga o‘rgatishdan iborat.

Talabalar portfoliosini tayyorlashda refleksiya yetakchi ahamiyatga ega hisoblanadi.

Talabalar portfolio tayyorlashda quyidagi talablarga alohida e’tibor qaratishlari lozim bo‘ladi:


IV. bajariladigan topshiriqlarga nisbatan shaxsiy pozitsiyani belgilab olish;

V. belgilangan muammo yechimi jarayonini tizimli tashkil etish;

VI. portfolioning bajarilish muddatiga amal qilish;

VII. portfolio topshiriqlarini minimal me’yor sifatida belgilab olish.

Talabalar portfoliosi mustaqil ta’limni tashkil etishda quyidagi ijobiy natijalarni qo‘lga kiritishga yordam beradi:



Mustaqil ta’lim jarayonida talabalar tayyorlaydigan portfolio o‘z ichiga quyidagilarni qamrab olishi mumkin bo‘ladi:

• belgilangan muammo yechimi jarayonini tizimli tashkil etish;

• auditoriyadan tashqari amalga oshirilgan ma’naviy-ma’rifiy va xayriya ishlaridagi ishtiroki;

• jamoa faoliyatidagi ishtirokiga doir ma’lumotlar.

Portfolio quyidagi qismlardan iborat tarzda tuziladi:

[54] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.

- titul varag‘i (talabaning ismi sharifi, portfolio tayyorlangan o‘quv predmeti, qamrab olingan davr, rahbar ismi sharifi);
- portfolio mazmuniga doir annotatsiya;
- mundarija;
- har bir erishilgan natijaga izoh;
- muvaffaqiyatlar haqida ma’lumotlar;
- qo‘lyozmalar, ma’ruzalar nusxasi;
- maqolalar nusxasi;
- mustaqil ishlarni bajarishga doir ma’lumotlar va materiallar;
- jamoaviy ish natijalari;
- portfoliodagi o‘ziga yoqqan eng yoqimli yoki faxrlanishga arzigulik ish natijasi va uning tavsifi;
- tayyorlangan portfolioga ota-onalarning bildirgan munosabati;
- portfolioga ekspert xulosasi;
- talabaning shaxsiy xulosasi;
- qo‘shimcha ma’lumotlar, asoslovchi qo‘shimcha materiallar.

Portfolio metodidan pedagogik quyidagi amal talablarga foydalanishda qilish lozim bo‘ladi:

- belgilangan muammo yechimi jarayonini tizimli tashkil etish;
- bir vaqtning o‘zida faqat bitta o‘quv predmetida portfolio tayyorlash topshirig‘ini berish. Bir vaqtda bir nechta portfolio tayyorlash talabalarni chalg‘itadi va zeriktiradi. Asosiy maqsad refleksiya ko‘nikmasini shakllantirish hisoblanadi;
- portfolio natijalarini albatta jamoada muhokama qilish, yutuqlarni rag‘batlantirish, kamchiliklarni tuzatish uchun topshiriq berish;
- shaxsiy portfolio yaratish ko‘nikmasini rivojlantirish va ushbu metoddan shaxsan muntazam foydalanishga talabalarni undash.

Ta’kidlash joizki, bu ta’lim tizimida talabalarning mustaqilligi alohida ahamiyatga ega.

“Kommunikativlik o‘qituvchi va, o‘quv faoliyati jarayonida kommunikativ-motivlangan talabaning xatti-harakatlarida shuningdek, aloqa jarayonining obyektivligida namoyon bo‘ladi.Muloqot pedagogik axborot bilan muvaffaqiyatli va faol ishlashning zarur shartidir. Binobarin, o‘qituvchining o‘z fikrini, aniq va tushunarli bayon eta olishi o‘z ishidagi muvaffaqiyat garovidir. Shunday qilib, chiroyli va to‘g‘ri darsning eng qiyin mavzusini ham qilish mumkin.

Qiziqarli, uni o‘rganish jarayoni o‘zaro tushunishga jozibador, muloqot muhitini yaratish, o‘quvchilar bilan aloqa o‘rnatish, erishish, auditoriyada samimiy o‘quvchida o‘ziga shakllantirishdan ishonch hissini”[55] iborat.

[55] ДИДАКТИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ ВУЗОВ В УСЛОВИЯХ КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ http://elibrary.ru/item.asp?id=21195889



Talabalar tanqidiy fikrlashni o‘rganadilar, o‘z nuqtayi nazarini ifoda etishdan va himoya qilishdan qo‘rqmaydilar, jamiyat, jamiyatdagi shaxs oldida turgan siyosiy, axloqiy, huquqiy muammolarda harakat qilish qobiliyatini rivojlantiradilar.

Aynan bir xil muammolarning turli yechimlariga doir taqdimotlarni o‘rganish talabalarni ijodiy va evristik faoliyatlarini rag‘batlantirishga yordam beradi. Talabalarning individual ta’lim trayektoriyalari ularning kasb tanlashlaridan tortib, o‘quv rejasidagi talaba tanlovi uchun ajratilgan o‘quv predmetlarni tanlashlaridayoq namoyon bo‘la boshlaydi. Tanlov fanlari sifatida taqdim etilgan o‘quv predmetlaridan o‘zlari uchun qiziqarli va zaruriy fanlarni tanlashlari talaba bilan bir qatorda fan o‘qituvchilari uchun ma’lum bir mas’uliyatni yuklaydi.

“Individual ta’lim trayektoriyasi — bu shaxsning o‘ziga xos imkoniyatlarini muayyan faoliyat turi orqali namoyon etish jarayonida shakllanadigan natija hisoblanadi. Talabalarning individual ta’lim trayektoriyasini aniqlash va amalga oshirish esa ularga quyidagi imkoniyatlarni beradi”[56]. Talabalar mustaqil ta’limini tashkil etishga doir loyihalashtirish texnologiyasi, hamkorlikdagi ta’lim texnologiyalari, talabalar portfoliosi, talabalarning individual ta’lim trayektoriyasini ishlash kabi texnologiyalar maqsadga muvofiq tashkil etilganda oliy ta’limni individuallashtirishga yordam beradi.

“Pedagogik manbalarda topshiriqlarni bajarishning individual shakli 2 turga ajratiladi: topshiriqlarni individual bajarish va individuallashtirilgan topshiriqlar”[57].

Topshiriqlarni individual bajarishda talabalar umumiy topshiriqlarni boshqalar bilan muloqotga kirishmasdan, individual tarzda bajarishlari nazarda tutilsa, individuallashtirilgan topshiriqlar bilim oluvchilarning qiziqishlari, imkoniyatlari va bilim darajalariga muvofiq tarzda maxsus ishlab chiqiladi.

Demak, oliy mustaqil ta’limni etishda differensiallashtirilgan tashkil va individuallashtirilgan tizimida ta’lim ta’lim topshiriqlardan foydalanish samarali usul hisoblanadi.

---

[56] Развитие творческих способностей учащихся начальных классов в процессе реализации внутриклассной дифференциации

[57] Егорова, Анастасия Юрьевна Педагогические условия разработки индивидуальных образовательных траекторий при подготовке

учащихся основной школы к промежуточным и итоговым испытаниям : автореферат дис. ... кандидата педагогических наук : 5.8.1.

Пятигорск 2...

http://dlib.rsl.ru/rsl01011000000/rsl01011916000/rsl01011916506/rsl01011916506.pdf

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.

2. Qalandarova M.K. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni individual yondashuv asosida intellektual rivojlantirish tizimi // p.f.f.d. (PhD) diss.avtoreferati. –Chirchiq. 2021. –47 b.

3. Qo‘ysinov O.A. Kasb ta’limi yo‘nalishi bakalavr o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limning ilmiy-metodik asoslari: Ped.fan.nom. diss. –Toshkent: TDPU, 2008. –160 b.

4. Дидактические условия развития самостоятельности студентов вузов в условиях кредитно-.модульной системыhttp://elibrary.ru/item.asp?id=21195889

5. Развитие творческих способностей учащихся начальных классов в процессе реализации внутриклассной дифференциации

6. Arzikulova S.F. Improving the technology of formation of methodological competence of future preschool teachers // Galaxy international interdisciplinary research journal. – India, 2022. – Volume – 10 ISNN: 2347-6915. P. 553-556.